

“KELISHILDI”
O‘zbekiston Respublikasi

Korrupsiyaga qarshi kurashish
agentligi direktori




2026-yil “20” aprel

A. Burxanov

“TASDIQLAYMAN”
“UzAssets investitsiya kompaniyasi”

AJ Boshqaruv raisi



2026-yil “20” aprel

B. Abdinazarov

“UzAssets investitsiya kompaniyasi” AJda Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash natijalariga ko‘ra aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini yaxshilashga qaratilgan

CHORA-TADBIRLAR DASTURI

№	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas‘ul ijrochilar
1.	Jamiyatrning korrupsiyaga qarshi ichki idoraviy hujjatlarini ishlab chiqish	Korrupsiyaga qarshi quyidagi ichki idoraviy hujjatlarini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun Jamiyat boshqaruv organlariga kiritish: 1. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti; 2. Xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha yo‘riqnomasi; 3. Kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnomasi; 4. Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnomasi; 5. Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti;	2026-yil aprel	Yuridik xizmat bo‘limi HR bo‘yicha mutaxassis Xo‘jalik ishlari bo‘yicha mutaxassis Korporativ kotibiyat


№	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
2.	Jamiyatning rasmiy veb-saytida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki idoraviy hujjatlar va ma'lumotlarni oshkor qilib borish	<p>6. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish reglamenti;</p> <p>7. Davlat xaridlarini o'tkazish to'g'risidagi nizom;</p> <p>8. Sovg'ani tasarruf etish to'g'risidagi nizom;</p> <p>9. Korrupsiya holatlari haqida xabar berish mexanizmi, xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish, ularning ta'qibga olinmasligi kafolatlari reglamenti;</p> <p>10. Jamiyat xodimlarini rotatsiya qilish tartibi.</p>	2026-yil may	Yuridik xizmat bo'limi Axborot xavfsizligi va texnik qo'llab-quvvatlash bo'yicha mutaxassis HR bo'yicha mutaxassis Jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi
3.	Jamiyatda tanlov asosida ishga qabul qilish tizimini yo'lga qo'yish	<p>1. Ishga qabul qilishga oid ichki normativ hujjatlarini taftishdan o'tkazib, zaruratga ko'ra unga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;</p> <p>2. Tanlov asosida ishga qabul qilish bo'yicha tanlov komissiyasi faoliyatini tashkil qilish.</p>	2026-yil may	HR bo'yicha mutaxassis Yuridik xizmat bo'limi

№	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
4.	Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish ishlarini rejali asosda yo'lga qo'yish	<ol style="list-style-type: none"> 1. Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish ishlarini rejasini belgilangan tartibda ishlab chiqish va tasdiqlash; 2. Tasdiqlangan rejaga muvofiq monitoring va nazorat tadbirlarini o'tkazib borish. 	2026-yil aprel	Yuridik xizmat bo'limi
5.	Jamiyatning barcha funktsiya va vazifalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash bo'yicha baholash ishlarini takomillashtirish	<ol style="list-style-type: none"> 1. Jamiyatning barcha funktsiya va vazifalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash bo'yicha elektron platformada baholashdan o'tkazish; 2. Baholash natijalari bo'yicha korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi hamda korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxatini shakllantirish; 3. Aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish yuzasidan manzilli chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish. 	2026-yil aprel 2026 yil aprel	Yuridik xizmat bo'limi HR bo'yicha mutaxassis
6.	Jamiyat korrupsiyaga qarshi komplayens xizmati faoliyatini tashkil etish	<ol style="list-style-type: none"> 1. Minimal mezonlar hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasini tashkil etish masalasini ko'rib chiqish; 2. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi rahbarini Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan hamkorlikda o'tkaziladigan ochiq tanlov asosida halol, fidoyi, tashabbuskor va professional kadrlar bilan to'ldirish; 3. Korrupsiyaga qarshi komplayens xizmatini barcha zarur resurslar va boshqa moddiy-texnik baza bilan ta'minlash. 	2026-yil aprel-may 2026-yil may	Yuridik xizmat bo'limi HR bo'yicha mutaxassis Xo'jalik ishlari bo'yicha mutaxassis Korporativ kotibiyat
7.	Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha targ'ibot tadbirlarini tashkil etish	<ol style="list-style-type: none"> 1. Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha targ'ibot ishlari, shu jumladan OAVda chiqishlar qilish bo'yicha 2026-yil va keyingi yillar uchun yillik dasturlar ishlab chiqish va tasdiqlash amaliyotini yo'lga qo'yish; 	2026-yil may, Har yili 1- fevralga qadar	Yuridik xizmat bo'limi Jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi


№	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
8.	Xodimlarni Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki normativ hujjatlari bilan tanishtirib borish	<p>2. Doimiy ravishda (Kamida har olti oyda bir marta): Jamiyat xodimlari uchun seminar-treninglar, davra subhatlari va boshqa tadbirlarni tashkil etib borish;</p> <p>OAVlarda chiqishlar (maqolalar) tayyorlash, Jamiyatda o'tkazilgan tadbirlarni Jamiyat rasmiy sayti va OAVda yoritib borish choralarini ko'rish;</p> <p>3. Jamiyat rasmiy saytida korrupsiyaga qarshi kurashishga bag'ishlangan materiallarni (maqola, prezentatsiya, bukletlar va boshqa) e'lon qilib borish.</p>	Doimiy	Yuridik xizmat bo'limi
9.	Xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish	<p>1. Jamiyatning barcha xodimlari, shu jumladan yangi ishga qabul qilingan xodimlarni "Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi"da korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlari bo'yicha onlayn o'qitilishini tashkil etish;</p> <p>2. Sohaga oid normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlarning, shuningdek korrupsiyaga qarshi menajment tizimi ISO 37001:2016 xalqaro standartining talablari va boshqa korrupsiyaga qarshi kurashishga oid hujjatlar talablari bo'yicha Jamiyat olish.</p>	Reja-grafika asosan Doimiy	Yuridik xizmat bo'limi HR bo'yicha mutaxassis Xo'jalik ishlari bo'yicha mutaxassis Bosh hisobchi Yuridik xizmat bo'limi

№	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
10.	Manfaatlar to'qnashuvi holatlarining oldini olish va bartaraf etish bo'yicha amaliy choralarini ko'rish.	<p>xodimlarining (barcha xodimlar, ishga qabul qilingan, korruptsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari va korruptsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo'lgan lavozimlarida faoliyat ko'rsatuvchi xodimlar) bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan o'quv seminar, treninglar tashkil etish.</p> <p>1. Xodimlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi haqida yillik deklaratsiyani to'ldirish va ularni tahlilini amalga oshirish, aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holatlarini tartibga solish;</p> <p>2. Ishga qabul qilishda, lavozimi o'zgarayotganda, rotatsiya qilinayotganda va mavjud manfaatlar to'qnashuvi fakti bo'yicha deklaratsiya to'ldirish/xabarnoma berish amaliyotini joriy etish hamda aniqlangan manfaatlar to'qnashuvini hal etish choralari ko'rib borish;</p> <p>3. Ishga qabul qilinuvchi nomzodlar ustidan o'tkazilgan tekshiruvlarni tashkil etish;</p> <p>4. Manfaatlar to'qnashuvi holatlarining hisobga olish reyestini yuritish.</p>	2026-yil I-chorak Doimiy Doimiy Doimiy	Yuridik xizmat bo'limi HR bo'yicha mutaxassis

Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi
“Komplayens-nazorat” tizimini joriy etish va ichki
nazorat bo'limmalari faoliyatini tartibga solish
 boshqarmasi boshlig'i


 U. Berdiqulov
 2026-yil “ 10 ” - aprel

“UzAssets” aksiyadorlik jamiyati
Yuridik bo'limi yetakchi yuriskonsulti


 X. Xudayberdiyev
 2026-yil “ 20 ” - aprel